
HAL QILUVCHI DAMLAR YAQIN

Furqat tumanidagi "Shaboda-N" fermer xo'jaligigi paxta maydonlarida mirishkor dehqon va ilg'or terimchilarni uchratdik. Xo'jalik rahbari Nurali G'anievning ta'kidlashicha, 38 gektar maydonda etishtirilgan paxta hosilidan 167 tonna paxta topshirilib, davlat rejasi ortig'i bilan ado etildi.

Mavsum yumushlarida Ma'rifatxon Qurbonova, suvchilar Ilyos Xo'jamov, Uzoqvoy Xaydarov, traktorchilar Jamoliddin Xalilov, Ma'murjon Abduotov, ilg'or terimchilar Sevaraxon Ahmedova, Muhayyo Umrzoqova va boshqalarning faolligi alohida e'tirofqa munosib.

Ayni paytda xo'jalik erlariga to'qsonbosti ekinlari ekilib, ularning qarovi ham sifatli olib borilmoqda.

Matn va surat muallifi

Sherzod QORABOEV.

2017-11-06 10:48:11